

## **MAKTABGACHA TA'LIM BOLANING IJTIMOIY VA O'QUV FAOLIYATIDA MUVAFFAQQIYATGA ERISHISHDA MUHIM DAVR**

Xasanova Marg‘uba Safar qizi - Xalqaro Nordik universitetining Psixologiya va maktabgacha ta'lism kafedrasi katta o'qituvchisi. Xalqaro O'qitish (International Teaching) darajasiga ega maktabgacha ta'lism mutaxassisi.

Sunnatillayeva Aziza Sunnatilla qizi - Xalqaro Nordik Unversetida maktabgacha ta'lism yo'nalishida 2- bosqich 4-MTS-23 guruh talabasi.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekistonda maktabgacha ta'lism tizimining rivojlanishi, uning bolalar hayotidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Bolalarning intellektual, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga maktabgacha ta'lism muassasalarining ta'siri, oilaviy tarbiyaning roli va xorijiy tillarni o'rgatishning ahamiyati ko'rsatilgan. Shuningdek, davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar, xorijiy universitetlar bilan hamkorlik va zamonaviy pedagogik yondashuvlar haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lism, bola rivojlanishi, ta'lism islohotlari, xorijiy tillar, tarbiyachi, psixologik barqarorlik, oilaviy tarbiya, zamonaviy ta'lism usullari, sport, musiqa.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan beri ta'lim sohasini jahon miqyosida yildan-yilga barqarorlashtirib bormoqda. Xususan, maktabgacha ta'lism bolalarning ijtimoiy va o'quv faoliyatidagi yutuqlariga erishishida muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda bolalarning sog'lom o'sishi va har tomonlama rivojlanishi uchun katta e'tibor qaratish zarur.

Maktabgacha ta'limga oilaviy muhitning ta'siri ham juda muhim. Bola oila bag'rida olgan dastlabki tarbiya va ta'lism asoslari uning kelajakdagi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, davlatimiz tomonidan bolalarning har tomonlama yetuk, sog'lom va bilimli bo'lib voyaga yetishlari uchun katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Maktabgacha ta'lism muassasalarida malakali tarbiyachilar psixologlar bilan hamkorlikda ishlashmoqda. Bu esa bolalarning shaxsiy rivojlanishiga, ijtimoiy

ko‘nikmalarining shakllanishiga va psixologik barqarorlikka erishishiga xizmat qiladi.

Yurtimizda oliy o‘quv yurtlarida tarbiyachilarga xorijiy tillar yo‘nalishida ham ta’lim berish yo‘lga qo‘yilgan. Masalan, Koreyaning O‘zbekistondagi KIMYO, Puchon hamda Finlyandiyaning “Nordik” universitetlarida talabalarga malakali ustozlar tomonidan zamonaviy bilimlar berilmoqda. Maktabgacha ta’lim tarbiyachilari zamonaviy texnologiyalar yordamida mashg‘ulotlarni ona tili va xorijiy tillarda olib bormoqda. Masalan, ingliz tili, rus tili va koreys tillarida qiziqarli mashg‘ulotlar o‘tish yo‘lga qo‘yilgan.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida sport mashg‘ulotlari orqali bolalar sport haqida tushunchaga ega bo‘lishadi va sog‘lom turmush tarziga qiziqishlari ortadi. Musiqa mashg‘ulotlarida qo‘shiqlar ijro etilishi bolalarning ritm va ohangni tushunish qobiliyatini rivojlantiradi. Xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida esa bolalar har bir millatning o‘z tili va urf-odatlari borligini anglab yetadilar. Bu esa ularning o‘z vatani va millatiga bo‘lgan muhabbatini yanada oshiradi. Shuningdek, xorijiy tillarni o‘rganishga qiziqish uyg‘onib, kelajakda kasb tanlashga bo‘lgan e’tibori ortadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maktabgacha ta’lim bolalarning intellektual, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar natijasida bolalar zamonaviy ta’lim usullari asosida tarbiyalanib, kelajakda jamiyatning faol a’zolari bo‘lib yetishmoqdalar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Khasanova, M. (2024). THE ROLE OF ETHNOMUSICOLOGY IN PRESCHOOL EDUCATION: CHALLENGES AND SOLUTIONS IN MUSICOLOGY. Nordic\_Press, 5(0005).
2. Khasanova, M. (2024). USING MODERN INNOVATIVE INFORMATION TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATION. Nordic\_Press, 3(0003).
3. Khasanova, M. (2024). The Development of Education in Central Asia During the Jadid Period (On the Example of Preschool Education). Nordic\_Press, 3(0003).
4. Xasanova Marguba Safar Qizi (2024). MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI. Eurasian Journal of Academic Research, 4 (7S), 412-414. doi: 10.5281/zenodo.13291832